



O'ZBEK TEXNIK TERMINOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI,
SHAKLLANISH JARAYONI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

THEORETICAL FOUNDATIONS, FORMATION PROCESS AND
LINGUISTIC FEATURES OF UZBEK TECHNICAL TERMINOLOGY

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ И
ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОЙ ТЕХНИЧЕСКОЙ
ТЕРМИНОЛОГИИ

Xashimova Xurshida Djuraxanovna

University of Business and Science

*Til va adabiyot ta'limi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Namangan, O'zbekiston

xurshidaxonxashimova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-6633-6389

+99897-2317501

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek texnik terminologiyasining nazariy asoslari, texnik *terminlarning lingvistik tabiati hamda ularning shakllanish jarayoni tizimli ravishda tahlil qilinadi. Termin tushunchasining ilmiy talqinlari, texnik terminlarning monosemantiklik, tizimlilik va normativlik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, texnik terminlarning o'zbek tilida shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-lingvistik omillar, termin tizimi va standartlashtirish masalalari ilmiy manbalar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari texnik terminologiyani me'yorlashtirish va yagona terminologik bazani yaratish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *terminologiya, texnik termin, termin tizimi, monosemantiklik, standartlashtirish, o'zbek tili.*

Annotation: *This article provides a systematic analysis of the theoretical foundations of Uzbek technical terminology, the linguistic nature of technical terms, and their formation process. Scientific interpretations of the concept of "term," as well as the principles of monosemanticity, systematization, and normativity of technical terms, are examined. The paper also discusses sociolinguistic factors influencing the formation of technical terminology in Uzbek, issues of terminological systems, and standardization based on scholarly sources. The findings of the study serve as a theoretical basis for the*



standardization of technical terminology and the development of a unified terminological database.

Keywords: *terminology, technical term, terminological system, monosemanticity, standardization, Uzbek language.*

Аннотация: *В статье проводится системный анализ теоретических основ узбекской технической терминологии, лингвистической природы технических терминов и процесса их формирования. Рассматриваются научные трактовки понятия «термин», а также принципы моносемантичности, системности и нормативности технических терминов. Освещаются социолингвистические факторы формирования технической терминологии в узбекском языке, проблемы терминологической системы и стандартизации на основе научных источников. Результаты исследования могут служить теоретической базой для нормализации и создания единой терминологической базы.*

Ключевые слова: *терминология, технический термин, терминологическая система, моносемантичность, стандартизация, узбекский язык.*

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti jarayonida texnik terminologiya tilning eng faol, dinamik va tez yangilanib boruvchi qatlamlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Fan-texnika sohalarida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalar, texnologik jarayonlar va ilmiy yutuqlar til orqali ifodalanadi va aynan terminlar yordamida ilmiy muomalaga kiritiladi. Shu bois texnik terminlar ilmiy-texnik tafakkurning lingvistik ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Texnik terminlar ilmiy-texnik tushunchalarni aniq, ixcham va tizimli tarzda ifodalash vazifasini bajaradi. Ularning asosiy funksiyasi – muayyan sohada shakllangan tushunchani boshqa tushunchalardan qat'iy ajratgan holda nomlash va ilmiy muloqotda aniqlikni ta'minlashdir. Terminlar yordamida ilmiy axborot uzatiladi, bilimlar tizimlashtiriladi hamda mutaxassislar o'rtasidagi professional kommunikatsiya samaradorligi oshadi. Shu ma'noda terminologiya fan va texnika taraqqiyotining muhim lingvistik asosi hisoblanadi.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida texnik terminologiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Yangi texnologiyalar, innovatsion ishlanmalar va fanlararo integratsiya natijasida terminologik tizimlar jadal kengaymoqda. Informatika, energetika, biotexnologiya, sun'iy intellekt kabi sohalarda har yili yuzlab yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Bu



esa terminlarni tartibga solish, me'yorlashtirish va standartlashtirish masalalarini dolzarb ilmiy muammoga aylantiradi.

O'zbek tilida texnik terminologiyaning rivoji milliy til siyosati, ilmiy-texnik taraqqiyot va xalqaro ilmiy hamkorlik bilan uzviy bog'liqdir. Davlat tilining fan va texnika sohalarida to'laqonli amal qilishi, ilmiy adabiyotlar va texnik hujjatlarning o'zbek tilida yaratilishi terminologik tizimning izchil va barqaror bo'lishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, texnik terminlarni milliy til imkoniyatlari asosida shakllantirish, ularni xalqaro terminologik me'yorlar bilan uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi tilshunoslikda terminologiya masalalari faqat nazariy doirada emas, balki amaliy jihatdan ham keng tadqiq etilmoqda. Terminlarni kodifikatsiya qilish, terminologik lug'atlar tuzish, elektron terminologik bazalar yaratish, avtomatik tarjima va axborot qidiruv tizimlarida terminlardan samarali foydalanish kabi masalalar terminologiyaning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shu bois texnik terminologiyani ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Termin tushunchasi zamonaviy terminologiya nazariyasida ilmiy bilimlarni ifodalovchi, maxsus funksiyaga ega bo'lgan til birligi sifatida talqin etiladi. Termin oddiy nomlash vositasi emas, balki muayyan fan yoki texnika sohasida shakllangan ilmiy tushunchaning konseptual ifodasidir. Shu sababli terminning mazmuni va qo'llanilish doirasi qat'iy belgilangan bo'lib, u ilmiy muloqotda aniqlik va izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi. S. V. Grinev terminni "ilmiy tushunchaning nomi bo'lib xizmat qiluvchi leksik birlik" sifatida ta'riflab, terminning asosiy vazifasi ilmiy tushunchani aniq va bir ma'noda ifodalash ekanini ta'kidlaydi [1]. Ushbu yondashuv terminning nominativ funksiyasini markazga qo'yadi va uni ilmiy bilimlar tizimi bilan bevosita bog'laydi. A. A. Reformatskiy esa terminlarni tilning maxsus qatlamiga mansub birliklar sifatida ko'rib, ularning umumtil leksikasi bilan uzviy aloqada bo'lishiga qaramay, qat'iy semantik chegaraga ega ekanini qayd etadi [2]. Olimning fikricha, termin umumxalq tilidagi so'zlardan farqli ravishda kontekstga kamroq bog'liq bo'lib, ilmiy aniqlikni saqlashi lozim.

Terminologiya nazariyasida terminlarning alohida-alohida emas, balki tizim sifatida mavjud bo'lishi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Har bir termin ma'lum terminologik maydonga kiradi va boshqa terminlar bilan mantiqiy-semantik munosabatlarda bo'ladi. V. M. Leichik terminning tizimdan ajratilgan holda talqin qilinishi uning semantik mohiyatini yo'qotishiga olib kelishini ta'kidlab, terminning mazmuni faqat terminologik tizim doirasida to'liq namoyon bo'lishini asoslaydi [3]. Bu yondashuv terminologiyani mustaqil ilmiy fan sifatida qarashga zamin yaratadi.



O'zbek terminologiya maktabida ham termin tushunchasi tizimlilik va ijtimoiylik nuqtai nazaridan talqin qilinadi. R. Daniyarov terminologiyani milliy tilning dinamik qatlamini tashkil etuvchi ijtimoiy hodisa sifatida baholab, terminlarning shakllanishi va rivojlanishini jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan bog'laydi [4]. A. Madvaliyev esa terminologiya nazariyasida normativlik, tizimlilik va me'yorlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib, terminning ilmiy muomalada barqaror qo'llanishi uning rasmiy tasdiqlanishi bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi [5].

Shunday qilib, zamonaviy terminologiya nazariyasida termin tushunchasi uch asosiy jihat orqali tavsiflanadi: birinchidan, termin ilmiy tushunchaning nomi sifatida aniq va bir ma'noli bo'lishi; ikkinchidan, termin alohida birlik emas, balki terminologik tizim elementi sifatida qaralishi; uchinchidan, termin jamiyatning ilmiy, texnik va madaniy taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiy-lingvistik hodisa ekanligi. Ushbu yondashuvlar texnik terminologiyani o'rganish va uni standartlashtirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Texnik terminlar lingvistik jihatdan umumleksik birliklardan bir qator muhim belgilari bilan farqlanadi. Avvalo, ular monosemantik birliklar sifatida shakllanib, muayyan ilmiy-texnik tushunchani aniq va qat'iy ifodalashga xizmat qiladi. Monosemantiklik texnik terminlarning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, ilmiy muloqotda semantik noaniqlikni bartaraf etadi va mutaxassislar o'rtasida tushunishning yagona modelini ta'minlaydi. R. Daniyarov terminologiyada bir ma'nolilik prinsipini ilmiy tafakkur aniqligining asosiy sharti sifatida baholab, terminning mazmun doirasi qat'iy chegaralangan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [4]. Shu bilan birga, terminologiya tizimining rivoji jarayonida ayrim umumiy texnik terminlarda polisemantizatsiya hodisasi kuzatiladi. Bunday terminlar turli fan yoki texnika sohalarida qo'llanilib, soha kontekstiga qarab turli ma'nolarni anglatadi. Masalan, tarmoq termini elektrotexnikada elektr uzatish tizimini, axborot texnologiyalarida internet yoki lokal tizimni, biologiyada esa o'zaro bog'langan elementlar majmuasini bildiradi. Bu holatda terminning aniq ma'nosi uning qo'llanilish sohasi va konteksti orqali belgilanadi. A. Madvaliyev bunday terminlarni "ko'p sohalik birliklar" sifatida talqin qilib, ularning me'yoriy qo'llanishi terminologik izoh va soha belgisi bilan birga berilishi zarurligini ko'rsatadi [5].

Texnik terminlarning yana bir muhim lingvistik xususiyati — ularning uslubiy neytralligidir. Terminlar emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmay, asosan ilmiy va rasmiy uslublarda qo'llanadi. A. A. Reformatskiy terminlarning stilistik betarafligi ularning asosiy funksiyasi — ilmiy axborotni xolis va aniq yetkazish bilan bog'liq ekanini qayd etadi [2]. Shu sababli texnik terminlar



badiiy nutqda kam qo'llanadi yoki metaforik ma'noda ishlatilgan taqdirda ham o'zining asosiy ilmiy mazmunidan chetga chiqmaydi.

Lingvistik nuqtai nazardan texnik terminlar semantik jihatdan denotativ xarakterga ega bo'lib, real texnik obyekt, jarayon yoki hodisani bevosita nomlaydi. Konnotativ komponentlar terminlar uchun xos emas yoki minimal darajada bo'ladi. S. V. Grinev terminning bunday xususiyatini uning ilmiy aniqlikka xizmat qiluvchi asosiy belgisi sifatida ko'rsatadi [1]. Aynan shu jihat texnik terminlarni umumxalq tilidagi ko'pma'noli va obrazli so'zlardan farqlaydi.

Demak, texnik terminlarning monosemantiklikka intilishi, zarur hollarda soha kontekstida polisemantik qo'llanishi, uslubiy neytralligi va denotativ xususiyati ularning lingvistik tabiatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Bu xususiyatlar texnik terminologiyani tizimli o'rganish, me'yorlashtirish va standartlashtirish jarayonlari uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

O'zbek texnik terminologiyasining shakllanishi til taraqqiyoti, fan va texnika rivoji, xalqaro ilmiy hamkorlik hamda davlat til siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Har bir texnik termin jamiyatda yuzaga kelgan muayyan ilmiy-texnik ehtiyoj natijasida paydo bo'ladi va til tizimi doirasida o'z o'rnini egallaydi. Shu sababli texnik terminlarning shakllanish jarayoni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham belgilanadi.

R. Daniyarov o'zbek terminologiyasining shakllanishini tizimli va qonuniy jarayon sifatida baholab, terminlar tasodifiy ravishda emas, balki muayyan ilmiy tushunchalar tizimi asosida yuzaga kelishini ta'kidlaydi [4]. Olimning fikricha, terminlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi fan sohalarining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yangi tushunchalar yangi terminlarni talab qiladi. Shu jihatdan terminologiya jamiyatning ilmiy-texnik rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

A. Madvaliyev terminologiya shakllanishida me'yorlashtirish va normativlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, terminlarning barqaror va izchil qo'llanilishi ularning rasmiy tasdiqlanishi, lug'atlar va standartlar orqali mustahkamlanishi bilan bevosita bog'liqdir [5]. Me'yorlashtirilmagan terminologiya ilmiy muloqotda noaniqlik va dubletlikka olib keladi, bu esa fan-texnika sohasida axborot almashuvining samaradorligini pasaytiradi.

Texnik terminlarning shakllanishida morfologik yasash muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilining so'z yasovchi imkoniyatlari orqali yangi terminlar hosil qilinadi: affiksatsiya (o'lchagich, kuchlanish), kompozitsiya (ma'lumotlar bazasi, gaz turbina qurilmasi), shuningdek, semantik kengayish yo'li bilan



terminlashuv jarayoni amalga oshadi. Bu holat terminlarning milliy til tizimiga moslashuvini ta'minlaydi va ularning tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, texnik terminologiyaning muhim manbalaridan biri o'zlashma terminlar hisoblanadi. Xalqaro ilmiy hamkorlik va texnologik almashinuv natijasida rus va ingliz tillaridan ko'plab terminlar o'zbek tiliga kirib kelgan. Bunday terminlar fonetik va morfologik moslashuv orqali o'zbek til tizimiga singdiriladi (kompyuter, generator, sensor). A. Madvaliyev bunday terminlarni milliy til me'yorlariga moslashtirish va ularni izchil qo'llash terminologiya barqarorligini ta'minlashini qayd etadi [5]. Shuningdek, texnik terminlarning shakllanishiga davlat til siyosati ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Fan va texnika sohalarida o'zbek tilining faol qo'llanilishi, normativ hujjatlar va texnik adabiyotlarning davlat tilida yaratilishi terminologik tizimning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu jarayonda terminlarni standartlashtirish va yagona terminologik bazani shakllantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek texnik terminologiyasi tilning eng faol va dinamik qatlamlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivoji ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir. Texnik terminlarning semantik aniqligi, tizimiyliigi va normativliigi ularni standartlashtirish va yagona terminologik bazani yaratishning muhim nazariy asosini tashkil etadi. Ushbu masalalarni ilmiy asosda o'rganish milliy ilmiy-texnik tafakkur rivoji va o'zbek tilining zamonaviy fan tili sifatida mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гринев, С. В. Введение в терминоведение. — Москва, 1993.
2. Реформатский, А. А. Введение в языкознание. — Москва, 1967.
3. Лейчик, В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. — Москва, 2007.
4. Данияров, Р. Ўзбек терминологияси тизимида шаклланиш ва ривожланиш қонуниятлари : филол. фан. номз. ... автореф. — Тошкент, 1988.
5. Мадвалиев, А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. — Тошкент, 2017.
6.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:roLk4NBRz8UC



7.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:qjMakFHDy7sC

8.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

9.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:UeHWp8X0CEIC

10.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

11.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

12.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Se3iqnhoufwC